

BOSHLANG'ICH SINFLARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI VA JISMONIY RIVOJLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10439451>

Mirzayev A'zam Xudaynazarovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
charvochilik va biyotexnologiyalari unversiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar,
jismoniy madaniyat va sport kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya

Mustaqillikka yerishilgan dastlabki yillardan boshlab mamlakatimiz yoshlar tarbiyasiga katta ahamiyat berib kelmoqda. Bu borada davlat dasturlari, qonun va qarorlar katta ahamiyat kasb yetmoqda. Sog'lom avlodni tarbiyalashga berilayotgan ye'tibor va g'amxo'orlikning yana bir yorqin namunasi sifatida 2000 yilning "Sog'lom avlod yili", 2001 yilning "Onalar va bolalar yili", 2008 yilning "Yoshlar yili", 2010 yilning "Barkamol avlod yili", 2014 yilning "Sog'lom bola yili" deb ye'lon qilinganligini alohida aytib o'tish kerak.

Kalit so'zlar

Yoshlarni sog'lom, jismonan baquvvat qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport sohasida ish olib borayotgan mutaxassislar.

Аннотация

с первых лет независимости наша страна придавала большое значение воспитанию молодежи. Большое значение в этом плане приобретают государственные программы, законы и постановления. В качестве еще одного яркого примера внимания и заботы, уделяемых воспитанию здорового поколения, следует особо упомянуть, что 2000 год был объявлен " Soglom avlod yili ", 2001 год - "Onalar va bolalar yili", 2008 год - "Barkamol avlod yili", 2010 год - "Годом совершенного поколения", 2014 год - " Soglom bola yili ".

Ключевые слова

профессионалы, работающие в области физического воспитания и спорта, воспитывающие молодежь здоровой и физически сильной.

Annotation: since the first years of the land to Independence, our country has attached great importance to the education of young people. State programs, laws and resolutions are gaining great importance in this regard. It should be mentioned separately that 2000 is the "Year of the healthy generation", 2001 is the "Year of

mothers and children”, 2008 is the “Year of the young”, 2010 is the “Year of the perfect generation”, 2014 is the “Year of the healthy child”, as another bright example of being given to the upbringing of a healthy generation.

Keywords: specialists working in the field of physical education and sports in the education of young people as healthy, physically strong.

Birinchi prezidentimiz tomonidan 2014 yilning “Sogʻlom bola yili” deb yeʻlon qilinishi va “Sogʻlom bola yili davlat dasturining ishlab chiqilganligi mamlakatimizda sogʻlom avlodni voyaga yetkazishni yangi bosqichga koʻtaradi. Birgina 2013 yilning oʻzida 113 ta sport inshooti va suzish xavzasi, 55 ta bolalar musiqa va sanʻat maktabi qurilib foydalanishga topshirilgan. Ushbu obektlarning 132 tasi qishloq joylarida ishga tushirilgan. Bularning barchasi birinchi prezidentimizning “Farzandlarimiz bizdan koʻra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli boʻlishlari shart!” degan yezgu daʻvatining hayotiy ifodalari. Barcha sport majmualari zamonaviy sport inventarlari va malakali murabbiylar bilan taʼminlanayotganligi tufayli ularning qamrovi tobora kengayib bormoqda. Bugun mamlakatimizda faoliyat koʻrsatayotgan sport majmualarida har yili yangidan – yangi isteʼdodlar kashf qilinayotir.

Yoshlarni sogʻlom, jismonan baquvvat qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport sohasida ish olib borayotgan mutaxassis olimlar, yetakchi murabbiylar va jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining ham oʻrni katta ahamiyatga yega. Ayniqsa maktab oʻquvchilarini jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularni sportga qiziqtirishda maktab jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining beqiyos xizmatlari bor. Bu borada fikr yuritar yekanmiz, albatta, maktabda oʻqitiladigan jismoniy tarbiya darslari oʻquvchilarning jismoniy rivojlanishini va jismoniy tayyorgarligini oshirishning yeng muhim vositasi sifatida namoyon boʻladi.

Mutaxassis va olimlarning fikriga koʻra oʻquvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi aynan maktab davrida shakllanadi. Ayniqsa, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining jismoniy tarbiyasi muhim ahamiyat kasb yetadi. Boshlangʻich sinflarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi masalasi bugungi kunda ham mutaxassislar oldida turgan va oʻz yechimini toʻla topmagan vazifalardan sanalib kelinmoqda. Shu sababli boshlangʻich sinflar jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini aniqlash va ularni rivojlantirish masalasini yanada aniq ishlab chiqish, olingan maʼlumotlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, xulosalar berish zarurati tugʻilmoqda.

Jismoniy tarbiya jarayoni murakkab pedagogik jarayon sanalib, bu mutaxassisdan yuqori darajadagi bilim va ko'nikmani talab qiladi. Bu jarayon bevosita ongli yondashuv hamda intellektual salohiyat kerakligini ko'rsatadi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun yetarlicha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu o'rinda ko'pgina qonun va qarorlar, qurib bitkazilayotgan sport zallari va boshqalarni ta'kidlab o'tish mumkin.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun qator ilmiy ishlar olib borilgan va bu jarayon muntazam tashkil qilinmoqda.

Azal-azaldan jismoniy tarbiya va sport ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sanalgan va uning rivojlanishi ham har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqil davrining boshlanishidayoq jismoniy tarbiya va sport jarayonining jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyati katta yekanligiga jiddiy ye'tiborni qaratdi. Chunonchi Oliy Kengashning 1992 yil 14 yanvarda qabul qilgan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi Qonuni fikrimizning asosidir.

1993 yilning mart oyida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti farmoniga asosan "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis yetildi. Uning Nizomiga ko'ra sog'lom avlodni tarbiyalab yetishtirish mas'uliyati maktab, tarbiya muassasalari kabi sport tashkilotlari zimmasiga ham yuklangan. Bu yo'lda qilinadigan ishlarning mazmuni va rahbarlik usullari jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fani tarkibining asoslaridan biriga aylandi. O'zbekistonda barcha sohalardagi yutuqlarni ta'minlash mutaxassis kadrlarga bog'liq yekanligi ye'tirof yetildi. Shu sababdan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Jismoniy tarbiya hamda sportni tashkil qilish va boshqarishda uning ahamiyati beqiyosdir. Muhim tomonlaridan yana biri shundaki, Respublika hukumati va mutasaddi vazirliklar, davlat hamda jamoat tashkilotlarining maxsus idorabilan "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlari ishlab chiqildi va uni amalda qo'llash joriy yetildi. Buning mazmuni va tashkiliy jihatlari asosan sport tashkilotlari hamda jamiyatlari zimmasida bo'lganligi uchun o'zining muhim manbai sifatida tan oladi.

Bu qo'mita o'z nufuzidagi sohalar bo'yicha qonunlarni tayyorlab, Oliy Majlis sessiyasiga tavsiya yetadi. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni ham shu qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublika Prezidentining farmonlarini, Oliy Majlis qabul qilgan qonunlarni amalda ijro yetuvchi organ. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi hisoblanadi. U o'z faoliyatida yeng muhim muammolarni hal yetish uchun qarorlar qabul qiladi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

"Jismoniy tarbiya, -deyiladi O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi Qonunida,-O'zbekiston Respublikasi xalqlari milliy madaniyatining ajralmas qismi, jismoniy va madaniy, ma'naviy kamolotining muhim vositasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining xalqlari o'rtasida do'stlikni mustahkamlash, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot ishiga xizmat qiladi". Ko'rinadiki, yosh avlodni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy tarbiya oldiga katta mas'uliyatli vazifalar qo'yilyapti. Kelajakda barkamol avlodni jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, maktab jismoniy tarbiya ishlariga tadbiq yetish yo'llari va usullarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Turli yoshdagi bolalarni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, uning o'rni kabi muammolar, ularning inson jismoniy tarbiyasidagi o'rni, o'ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy adabiyotlar juda kam. Bu haqda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyotiga bag'ishlangan, mualliflar olimlari bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarida ma'lumotlar berilgan. O'zbek olimlarining ishlarida, tadqiqotlarida yesa bu mavzu yetarli darajada o'rganilgan. Jumladan, K.Maxkamjanov, R.Salamov, T.Usmonxo'jayev (Toshkent), J.Yeshnazarov, B.Haydarov, Ye.Nuriddinov, Y.Masharipov (Samarqand), B.Bo'riboyev, A.Sodiqov, F.Axmedov (Jizzax), Sh.Xonkeldiyev, A.Abdullayev (Farg'ona) kabilar.

Respublikamizda sohani rivojlantirishda, xususan, boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari standartlarini ishlab chiqishda T.S.Usmonxo'jayev katta ishlarni amalga oshirgan. Olimning bu boradagi ishlari o'ziga xos sanaladi.

Bu o'rinda turli maqolalar, internet materiallari alohida ahamiyatga yega. Respublika miqyosidagi ko'pgina sohaga tegishli va uni rivojlantirishga qaratilgan anjumanlarda mavzuga tegishli bo'lgan masalalar yoritilgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil yetish to'g'risida". Vazirlar Mahkamasining 31 oktyabr 2002 yil №374 Qarori.

2. Айрапетянс Л.Р. Волейбол. //Учебник для высших учебных заведений.Т.: Зар қалам. 2006. - 240 с.

3. Айрапетянс Л.Р., Годик М.А. Спортивные игры. Т.: Ибн Сино, 1991. - 160 с.